

ARTISTIC IMAGE AND POETIC EXPRESSION IN ASKAR MAHKAM'S POETRY

Djumaniyazova Nasiba

Professor of Urgench State university

Baxtiyorova Gulshoda

Student of Urgench State university

Annotation. This article explores unique properties of talented poet Askar Mahkam's poetry and literary exposition, literary simile of his poetry.

Key words: Askar Mahkam, literary simile, poetry, creativity, poet, lyrical hero.

Аннотация. В этой статье исследуются специфика поэзии талантливого поэта Аскара Махкама, литературно-художественный образ, литературно-художественное сравнение.

Ключевые слова: Аскара Махкама, сравнение, поэзия, творчество, поэт, лирический образ.

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste'dodli shoir Asqar Mahkam she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari, she'rlaridagi badiiy tasviriy vositalardan tashbeh san'atining qo'llanishi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Asqar Mahkam, tashbih, she'riyat, ijod, ijodkor, lirik qahramon.

She'riyat bu _ nafasat olami. Unda so'z aytish bu katta mahorat va sharafdir. "So'z _ ilohiy ne'mat. Shu bois so'z aytish hamisha ulkan mas'uliyatdir. Jamiyat, millat yoki insonga qilinadigan zulm uning so'ziga zug'umdan boshlanadi. Har qanday erk ham so'z erkinligidan madad oladi. Shu boisdan so'z erkinligi hur insonning dastlabki talabi hisoblanadi."¹ Ana shunday qalb hurligini so'z hurligiga aylantirib badiiy inkishof qilgan shoirlarimizdan biri Asqar Mahkamdir. Shoirning ijodi o'ziga xos individuallikka ega. Uning she'rlari badiiyati, ifoda yo'sini nihoyatda serjilodir. Shoir she'rlarida mazmun yukini o'zida ko'tara oladigan go'zal tasviriy vositalar pishiq va o'rinli qo'llangan. Tashbih san'ati o'zaro o'xshashlikka asoslangan san'atlardan bo'lib, ma'no teranligini qiyosiy yo'l orqali go'zal ifodalarni yaratadi. Tashbih, ya'ni o'xshatish Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biridir. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Masalan, "So'nggi nuqta" she'ridagi quyidagi misralarni olaylik:

Qaytadan huvullab qoldi yuragim

darz ketib eskirgan idishdek bo'm-bo'sh.

Uloqib yotibdi bo'lak bo'lagim

yelkamda bosh emas, oshiyonsiz qush.

Ushbu misralarda lirik qahramonning tushkun holati tasvirlanadi. Bilamizki, "huvullab qolish" biror o'rin-joyga tegishli bo'ladi, lekin ijodkor uni yurakka nisbatan ishlatadi. Xo'sh, yurak qachon huvillab qoladi? Qachonki bizga yaqin, qo'llab-quvvatlab turuvchi, g'amimiz-u quvonchimizga sherik bo'ladigan insonlarimiz bo'lmasa, do'st deb bilgan yaqinlarimizningning xiyonatkorona, qabih qilmishlarining guvohi bo'lganimizda, go'yoki qalbimizda bir bo'shliq paydo bo'ladi, u xuddiki parchalangandek bo'ladi. Ana shunday parchalangan yurakni Asqar Mahkam "darz ketib eskirgan idish"ga qiyos qilyapti. "eskirgan" deyishining sababi shundaki, eskirgan narsadan foydalanmaganimizdek, lirik qahramon ham o'zining yuragidan "foydalanmay qo'ygan", ya'ni

¹ Yo'ldoshev.Q. So'z yolqini: Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti.2018.4-bet

shunchalik iztirob chekkanki, oqibatda keyingi g'ussalar kor ham qilmagan, unda na g'am-alam va na shodlik, baxtiyorlik bor _ "bo'm-bo'sh". Xuddi tanasining qismlari uloqib ketayotgandek, ajralib ketishga shaylangandek bo'ladi. Lirik qahramonning boshi bu qiynalish tuyg'usidan aylanib ketadi, xayollar uni goh uyon, goh bu yon olib ketadi, boshi yelkasida emasdek, o'ylari uyasiz qushdek darbadar bo'ladi.

Ushbu misralarda shoir yurakni "darz ketib eskirgan idish"ga, xasratdan aylangan boshni uyasiz qushga o'xshatish orqali go'zal tashbih namunalarini yaratadi.

Bitaman, bitaman, O'rxun toshidek

Sochilib ketsa ham bor ustuhonim.

Buvingning bir umr oqqan yoshidek

To'kilib bitsa-da jismimda qonim.

Asqar Mahkamning yuqoridagi misralarida ham badiiy tasviriy vositalar yorqin qo'llangan. Ma'lumki, turkiy xalqlarning eng qadimiy yozma manbalaridan biri bo'lmish O'rxun Enasoy obidalari yaxlit holda bir hududda emas, Mo'g'uliston, Janubiy Sibir, To'li, Selenga daryolari bo'ylarida va boshqa hududlarda qismlari uchraydi. Shoir yuqoridagi misralarida xuddi shuni nazarda tutib tanamdagi suyaklarim O'rxun Enasoy bo'lak-bo'lak bo'lib sochilib ketsa ham baribir she'r yozishdan, haqiqatni yozishdan to'xtamayman degan fikrlarni keltiradi. Asqar Mahkamning hayotida buvisi muhim o'rin tutadi. Buvisining og'ir hayoti, chekkan dard-u hazratlari shoir tomonidan bu satrlarda teran aks ettirilgan. Shoir jismidagi qonni buvisining ko'zyoshiga o'xshatib, jismimdagi qonim umri dard-u alamga to'liq bo'lgan buvingning ko'zyoshlari kabi mening jismimdagi qon ham to'kilib ado bo'lsa ham yozaveraman degan mazmundagi badiiy fikrlarini bildiradi.

Yana bir misrasini olaylik:

Dunyo ulkan bir tegirmontosh,

Hamma unda yanchilib kelgan.

Dunyo goho tevadek yovvosh,

Goho itdek qopog'on ekan.

Har bir shoirning tasavvurida dunyo deganda har xil ko'rinish, har xil badiiy manzara gavdalanadi. Asqar Mahkam esa dunyoni tegirmon toshiga o'xshatadi. Go'yoki u har bir taqdir egasini tegirmonda yanchadi, o'zining shafqatsiz sinovlari, qiyinchiliklari bilan sinaydi. Tegirmondan chiqmagan dondan foyda bo'lmaganidek dunyo tegirmonidan o'tmagan inson ham yashashdan maqsad nima ekanligini, haqiqiy inson qanday bo'lishi kerakligini anglab yetolmaydi. Bu tegirmondan hamma o'tadi, kimdir erta, kimdir kech. Teva, ya'ni tuya juda yuvosh bo'ladi. Hatto, u ortiqcha ozuqa ham talab qilmaydi. Qirq kun va undan ko'p suvsizlikka chidashi mumkin. U cho'llarda yashovchi aholi uchun asosiy ulov vazifasini bajargan. Boshqa ulovlar ot, eshaklar ba'zi- ba'zida tixirlik qilsa ham tuya bundaymas. Shoir uchinchi misrada shunga ishora qilyapti. Ba'zida dunyo tevadek yuvosh bo'ladi, har bir ishimiz muvaffaqiyatli yakun topadi, omadimiz chopadi, shodon bo'lamiz, dunyo bizga baxtiyorlik tuyg'usini tuhfa etadi. Ba'zida esa u xuddiki qopog'on itdek bo'ladi: ishlarimiz yurishmay qoladi, do'stlarimiz xiyonatiga duch kelamiz, yaqin insonlarimiz o'zlarining yuzidagi niqoblarini yechib, asl basharalarini ko'rsatadilar. Qalbimiz tilka pora bo'ladi. Shoir ushbu misrada tashbihning tashbihi mujmal va tashbihi muyaqqad turlarini qo'llagan va avvalgilariga o'xshamaydigan, o'ziga xos o'xshatish yaratgan.

Uziladi yaproqlar sekin,
Tumanlarga chayqalib cho‘kar.
Xotiralar oqibat bir kun
Yaproq yanglig‘ yo‘qlikka ko‘char.

Ushbu baytda shoir xotirani bargga o‘xshatadi. Kuz faslida yaproqlar havo tuman bo‘lganida daraxtdan to‘kilgani va tuman orasida ko‘zga ko‘rinmay tumanga singib ketgandek ba‘zi xotiralar ham xuddi ana shu barglarga o‘xshatiladi. Chunki ular ham bir kunmas, bir kun yo‘qlikka yuz tutadi, ya‘ni unutilib ketadi. Shoir tabiatining naqadar sinchkov ekanligini, naqadar nozik ekanligini ushbu ifodalari orqali ham anglab olishimiz mushkul emas. Qancha odam tuman paytida yaproqning qanday to‘kilishiga e‘tibor beradi? Va bu barglarni xotiralarga qiyos qila oladi? Shubhasiz, ilhomi jo‘shqin, oddiy narsalarni oddiy odamlardan farqli ko‘ra oladigan, atrofga boshqacha nazar soladigan ijodkor inson bu ishning uddasidan chiqadi va mana shunday ruhga orom bag‘ishlaydigan estetik zavq manbaini kashf eta oladi.

Cho‘kkan mozor kabi cho‘kkan his,
Titroq solar jonimga yomon.
Va tuproqqa yalang bosib tiz,
Oyog‘ingda yotarman armon.

Cho‘kkan mozor kabi cho‘kkan his... Bu qanday hiski, cho‘kkan mozorga o‘xshaydi? Judolik hisimi? Xiyonatdan ozor chekish hisimi? Yoki noumidlikmi? Barchasi yig‘ilib "cho‘kkan his" bo‘lishi mumkinmi? Albatta, u "cho‘kkan his" bo‘lsa-da butun ruhni va jismni larzaga soladi, hatto boshqa hislarni ham "cho‘ktiradi". Shu paytda qalbdagi faqat armon deb atalmish his qoladi. Yuqoridagi misralarda Asqar Mahkam "cho‘kkan his"ni cho‘kkan mozorga o‘xshatish orqali tashbihning go‘zal namunasini yaratadi. Lirik qahramonning armonning oyog‘ida yotishi kabi tasvir orqali ham go‘zal badiiy ifoda yaratgan.

Xullas, shoir she‘rlarida keltirilgan badiiy tasvir original va o‘ziga xos tarzda yaratilgani bilan diqqatga sazovordir. Shu jihatdan shoir mahoratini yuqori baholash mumkin.

LITERATURE:

- 1.A.Mahkam. Tabriz daftari, _Toshkent. 2003-y.
- 2.A.Hojjahmedov. Mumtoz badiiyat malohati, _Toshkent.1999-y.
- 3.Yo‘ldoshev.Q.So‘z yolqini–Toshkent:G‘.G‘ulom nashriyoti.2018.4-bet.
- 4.ziyouz.com onlayn kutubxonasi.